



VIKTORIAN ADABIYOTIDA AYOL XARAKTERI SHAKLLANISH MEZONI

Muallif: Muxammedova Xulkar Eliboyevna¹

Affiliyatsiya: Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15202026>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada victorian davrining mashhur adiblaridan bo'lgan Charlz Dikkins prozasida ayol xarakterining shakllanish mezonini adib ijodi misolida tahlil qilinadi. Ingliz jamiyatida shakllangan victorian an'analar ayolning qanchalik cheklanganligini va ayolning o'rni oila bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Charlz Dikkins asarlarida uchraydigan ayollar ingliz ayolining o'ziga xosligini, uning madaniyatini va oiladagi o'rni qanchalik muhimligini victorian an'analar bilan ko'rsatadi. Ayolning uy farishtasi sifatida tasvirlanishi hamda uy bekasining turli tipga mansubligi adibning asarlari orqali tahlil etiladi

Kalit so'zlar: victorian, ingliz, adabiyot, ayol, xarakter, mezon, roman, xususiyat

KIRISH

Tanqidiy realizm prozasida ijod etgan adiblardan biri Charlz Dikkins jahon adabiyotini durdona asarlar bilan boyishiga munosib xissa qo'shdi. O'z ijodi davomida yozuvchi ingliz xalqiga mansub ayol xarakterini badiiy adabiyotda tasvirlanishi, bu tasvirdagi o'ziga xosliklarni o'rganish, bu xarakterni badiiy yoritishdagi yozuvchi uslubi va mahoratini tahlil etish bir jihatdan xarakter yaratilishiga ko'ra ingliz xalqidagi milliylikni ko'rsatishda o'ziga xos ahamiyatga egadir. U ingliz adabiyotida ijtimoiy roman janrini yaratgan bo'lib, ushbu janrda ijtimoiy masalalarga bag'ishlangan kuchli asarlar yarata oldi. Ushbu asarlarda tasvirlangan ayol xakteri ko'p qirraligi bilan xarakterlanadi. Uning ijodida ayol xakterining turli tiplarini ko'rish mumkin. Bunday tiplar victorian modelining turli ko'rinishlarida o'z aksini topadi. Bunday ayol avalo ona, farishta, yo'l boshlovchi, yalmog'iz kampir, o'lim farishtalari kabi qiyofalarda namoyon bo'ladi. Xar bir tip o'ziga xos xakterga egaligi bilan ajralib turadi. Xar bir tipdagi ayol xakterida turli sifatlar mujassam bo'lib, ular xakterni ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu sifatlar shaxslarnig har birida umumiy tipik tomonlar borligini ko'rsatadi. O'sha shaxslardagi barcha xususiy tomonlarni chetga uloqtirib turli kishilardagi xususiyatlarni yagona badiiy yaxlitlik doirasiga birlashtiradi. Shu yo'l orqali chindan ham mavjud xakterning negizi hisoblanishi mumkin bo'lgan xakter yaraladi.

Charlz Dikkins ijodida ayol xakterining tadrijiy belgilari ruhiy qadriyatlar va tashqi muhit zalvori bilan o'lchanadi. Xususan, adib ijodi takomiliga nazar tashlansa, ikki jihatning o'zaro aloqadorligi seziladi. Birinchidan, yozuvchi talqini markazida doimo ayol siymosi turadi. Ikkinchidan, mazkur xakter asardan asarga teranlashib, murakkablashib hamda mukammallashib boradi. Chunki ilk asarlarda ko'zga

tashlanadigan sxematizm, deklarativlik o'rnini kichik janrdagi badiiy psixologizm egallaydi. Binobarin, tasvirning sinkretik holatida qiyofani ochib berishga yo'naltirilgan mohiyat aks etadi. Turfa uslubiy maneralar (portret, tahlil, tavsif) xarakter takomilini belgilaydigan etakchi omillarga aylanadi.

ASOSIY QISM

Har bir adib ijodiy takomiliga nigoh tashlansa adabiy mahorat va o'zgarishlar hajmi asardan asarga mukammallashib borishi kuzatiladi. Chunki turfa ijodiy tajribalar va badiiy mushohadalar muallif tajribalarini boyitib, rivojlantiradi. Shu ma'noda ijodiy takomil belgilari qahramon ruhiyati murakkabliklarini qamrab oladi. Ch.Dickens nasrida ayol xarakteri izchil xronologik tarzda murakkablashib, mustahkamlashib boradi. Shu tariqa qahramon ruhiyati va evolyusiyasi goh birinchi planda, goh ikkinchi planda berilishiga qaramay har bir poetiq talqinga yangidan yangi qirralar bilan kirib boraveradi. Fan texnika taraqqiyoti va ong, saviyaning yuksalishi san'atkor psixologik talqinlaridagi yangilanishlar timsolida qahramon ruhiyatiga ko'chadi. O'z navbatida personaj tabiatining murakkablashuv jarayoni tashqi muhitning inson faoliyatiga ta'siri bilan belgilanadi. Tipik alomatlar o'ziga xos belgilar orqali ifodalanadi. Kishilarning tiplari esa insoniy xarakterlar vositasida yaratiladi. "Xarakter bu muayyan insonga xos belgi va xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan alohidalikdir[1:217]" yoki "xarakter farqlanuvchi xususiyat, belgi, odam, narsa va xodisalarning o'ziga xos ko'rinishga ega, boshqalardan ajralib turadigan tomoni hamda odamning xatti-xarakati va atrof muhitga munosabatida namoyon bo'ladigan o'ziga xos xususiyatga ega"[2:126] ligi bilan xarakterlanadi. Realistik asarlarda ko'plab his-tuyg'ular, fikrlar ustidan hokimlik qiluvchi kuchli ehtirosli insoniy xarakterlar ko'p qirrali bo'ladi. Ingliz ayol xarakteri o'zida fe'l-atvor, xulq, urf-odat, rasm-rusumlar va turmush tarzini namoyon etadi. Ayniqsa xikoyachi Dikpensning kayfiyat diapazonida kuzatiladigan kulgu, kesatish, xursandchilik, muloyimlik, g'amginlik, azoblanish, g'azablanish kabi holatlar xarakter yaratish jarayonida aks etadi. Muallif yaratgan xarakterning individual belgilari ya'ni kiyimlari, detali, imo-ishoralar, hatti-xarakatlari, sevimli so'zchalar (little creatura, little housekeeper) va iboralar bilan xarakterlanadi. Bu belgilar orqali turli tipdagi xarakter namoyon bo'lgan. Masalan "Sovuq uy (Bleak House) asarida bosh qahramon Ester Sammerson quyidagicha tasvirlanadi: *She was handsome; like an angel—but she never smiled. She was always grave and strict. She was so very good herself, I thought, that the badness of other people made her frown all.- U guyo farishtasifat ammo, u xech qachon jilmaymasdi. U xar doim qattiqqo'l va jonsiz edi. U o'ziga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lib, meni fikrimcha uni odamlarning badfe'lligi uni hayoti davomida sovuqqon qilib qo'ygan edi*[3:21].

Mazkur asarda tasvirlangan missis Flitt xarakterida shunday fazilat mavjud. Dikpens shunday deb tasvirlaydi: *"The old – young woman with gentility, contributed to the creation of the comic- pathetic little madwoman miss Flitte (O'rta yosh bo'lgan bu ayol aqlu-zakovati ila hazilkash va savdoyiroq miss Flittga aylangan edi* [3:48]".

Katta umidlar (Great Expectation)" asaridagi missis Jo Gardjeri *"She was tall and bony, with black hair and eyes, and red face and always wore a coarse apron stuck full of pins and needles" chapter 2. "U ozg'in va baland bo'yli, sochi va ko'zlari qora*

rangda bo'lib, yuzi qizil edi. U xar doim igna va to'g'nog'ichlar qadab qo'yilgan qo'pol fartuk taqib yurardi[4:92]".

Yuqorida keltirib o'tilgan uch xil xarakterning o'ziga xosligi ularning fe'l-atvoridan kelib chiqqan holda shakllanganligini ko'rish mumkindir. Birinchi xarakterda uning sovuqqon ekanligi uning yuzida ham aks etib tursa, ikkinchi ayol xarakterida uning hazilkashligi va shu bilan birga savdoyiroq ekanligi ko'zga tashlansa, uchinchi tipdagi ayol xarakterida missis Jo Gardjerining qo'pol fartuk taqib yurishi uni boshqalardan ajratib turadigan belgisidir. Boshqacha qilib aytganda, ingliz ayolining bunday fartugi asarda xarakterni ochib berishda detal vazifasini bajaruvchi hamdir. Har bir xarakterning o'ziga xosligi muallif tomonidan mazkur xarakterga xos tipni shakllantirishda xarakterning tabiatidan kelib chiqqan xolda uning shakllanish mezonini ham ochib beradi. Turli xarakter tiplarlaridan biri "Dombi va o'g'li" asaridagi missis Chikdir. Missis Chikning qiyin vaziyatlarda ikkiyuzlamachilik qilib suvdan quruq chiqib ketish xususiyati xarakterni yanada yaqqolroq namoyon etishga xizmat qiladi. Bundan tashqari adib insonlarning xarakterini yaratishda ma'naviyatsiz va manfaatli, vijdonsizlikning belgilari sifatida ertak elementlaridan mohirlik bilan foydalanadi. "Dombi va o'g'li" asaridagi Florens Zumrad tipidagi xarakterga ikki yalmog'iz kampir missis Braun va missis Pipchin ya'ni ertakdagi odamxo'r yalmog'iz sifatida ifodalangan.

XULOSA

Charlz Dikkins asarlarida ijobiy qahramonlarning fikrlarida yozuvchining o'z yurak hissiyoti namoyon bo'ladi. Qahramonlarning alangali nutqlari muallif fikrlari bilan qo'shilib ketadi va bu nutqning kuchayishiga sabab bo'ladi. Bu esa asarning ta'sirchanligini oshiradi. Asarlar nashrdan chiqqach kitobxonlar tomonidan iliq kutib olindi. G'arb tanqidchilari Charlz Dikkins Angliya mamlakatini bitta oila misolida ko'rsatib berganligini ta'kidlashdi. Asarlarda tasvirlangan ayol xarakterining turfa xilligi va ularning o'ziga xos takrorlanmas tiplari muallifning ijodida xuddi poyonsiz o'tloqda ochilgan turfa gullar singari ko'zga tashlanib turadi. Go'yo butun mamlakat adib asarlariga ko'chib o'tgandek edi. Faqat vujudga kelgan muammolar va turli xil vaziyatlar, ingliz xalqining turmush tarzi musavvir Dikkins qalami bilan chizildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent: Akademya nashr, 2013 yil. – 406 b.
2. Boboev T. Adabiyotshunoslikka asoslari. Toshkent: O'zbekiston, 2002 yil. – 556 b.
3. Dickens Ch. Bleak House. The Penn State an Electronic Slassics Series publication 2013.
4. Dickens Ch. Great Expectations. The Penn State an Electronic Slassics Series publication 2013.